



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67
e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazorat qilmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. O'fset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasi-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosma-xonada chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirbod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayruti » Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narsada.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonat testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Xatolova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi – shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'or Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'g'ri lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchlisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi?	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2687

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

San'at asarlari ham, ularning g'oyasi ham ilohiy nur kabi jilvalanadi. Germenevtikada esa, biz ularni tush-unamiz va ijroga aylantiramiz, xolos. Ko'lankalar jilva-lanishi, ularning paydo bo'lishi, yaratilishi uchun aura kerak, ma'lum aura insonni ruhlantiradi, ilhomlantiradi, unda buyuk yaratuvchanlik hissini uyg'otadi. Bunday jarayonning ilk mevasi she'r bo'lishi mumkin. Chunki she'rda inson ruhan his qila olgan, ammo aniq ko'ra ol-magan ko'lankalarini so'zga solishga intiladi.

Materialistik borliqning biz bilgan, his qilgan va tasavvur qilgan mavhum aksi ko'lanka dunyosiga ayla-nadi va u soylar orqali tasavvurda harakatlanadi. Ko'lanka bu – ruhiy dunyo, undagi soylar – obrazlar. Biz bunday ko'lanka dunyosini tasavvur orqali ko'ramiz, sezamiz. Ko'lanka dunyosining o'ziga xos eng muhim holati shuki, unda hamma narsa, butun dunyo bir va-qtida, bir joyda sening oldingda mavjud bo'lib ko'rinadi. Unda zamon va makonning ahamiyati yo'q. Sen o'zing bilgan-bilmagan, ko'rgan-ko'rmagan Alloh yaratgan har qanday odam yoki mavjudotni yoningda, bir vaqtning o'zida ko'rib turgandek his qilasan. Muhimi aynan mana shu dunyoda biz o'zimiz mutlaq hukmronmiz. Bunday mutlaq hukmronlik sho'irga, o'quvchiga cheksiz qudrat baxsh etadi.

Uning ruhiy isyonini mana shu tasavvurdagi ko'lanka saftanatida uyg'onadi, junbushga keladi, uning ruhiy soyasini harakatga keltiradi. U – cheksiz qudrat sohibi, u – jasur, u – mard, u – olijanob, u – saxiy, u – tugal

go'zallik siymosi, u – ezigulik taratuvchisi, u – komilik dunyosining yorqin namoyandasi. Va umuman, barcha ijoiy va mental psixologiya qirralari unda mujassam. Ko'lanka san'ati, ko'lanka dunyosining o'quvchiga – ki-tobxonga yetkazadigan, uning borlig'ini transformatsiya qiladigan eng birinchi kuch mana shunda.

Yodingizda bo'lsa, "Oq kema" asarining qahramoni mana shunday hissiyotlar og'ushida yashaydi. U inson-ni bir umr baxtli bo'lishi uchun yolg'iz O'rozalini tiyib qo'yishning o'zi yetarli deb o'ylaydi. Chunki u bechoran-ing butun baxti shu kichkina bir kordondagi olti-yetti kishining taqdiri bilan uzviy bog'liq. Uning baxti, taqdiri, o'tmishi, kelajagi va, hattoki, fojiasi hama shu yer-da gi muhit bilan bog'liq ediki, uning nazarida balliqa aylanib dengizdagi kema yelib olishning o'ziyoq na-faqt uning, balki butun insoniyatning taqdirini o'zgar-tirib yuboradi, deb orzu qiladi.

Ko'lanka san'ati namunalarini biz o'zbek mumtoz adabiyotining har qanday yetuk namunalarida uchra-tamiz. Muallif o'z qalbi tasviri bayonida so'z vositasida betakror rangli olam yaratadi. Bu olam tavsifida shoir – ijodkorning maqsadi chiroyli, yorqin, jarangdor, jimjima-dor so'zlar aytib o'quvchining lug'at boyligini oshirish emas, balki mana shu rango-rang kalimalar orqali uning tasavvurini yoqish kema tasavvur orqali hali unga no-ma'lum muhtasham dunyoni kashf etishga yo'l ochish va inson uchun haqiqiy barkamol hayotning chizgilarini muallif qalbidan kitobxon qalbiga ko'chirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тиселтон Э. Герменевтика. – Минск, 2008.
2. Сulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 1985.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz so'z san'ati. – Toshkent, 1998.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2002.
5. Хализев В.А. Теория литературы. – Москва, 2008.

Hoshimjon QUCHQOROV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

TARJIMON, TARJIMA VA MATN

(tarjima nazariyasi va amaliyoti xususida ba'zi fikr-mulohazalar)

Annottatsiya. Maqolada yozma va og'zaki tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini haqida fikrlar berilgan. Tarjima turlari va uning tasnifi, tarjimaning kognitiv amallar natijasi ekanligi, rasmiy va norasmiy tarjima xususiyatida nazariy qarashlar ifodalangan.

Shuningdek, tarjimonlik, tarjimon-ni kasbiy mahorati, malakasi va im-koniylatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: til, tarjimon, matn, yozma tarjima, og'zaki tarjima, badiiy tarjima, sinxron tarjima, muqobillik, tar-jimonning kasbiy mahorati.

Annotation. The article provides in-sights into the specifics of written and oral translation. Types of translation and its classification, the fact that trans-lation is the result of cognitive actions, formal and informal translation, in par-ticular, expressed theoretical views.

There was also talk about transla-tion, the professional skills, qualifica-tions and capabilities of a translator.

Key words: language, translator, text, written translation, interpretation, literary translation, simultaneous trans-lation, alternative, professional skills of the translator.

Аннотация. В статье дается пред-ставление о специфика письменного и устного перевода. Виды перевода и его классификация, то, что перевод является результатом познаватель-ных действий, формальный и не-формальный перевод, в частности, выраженные теоретические взгляды.

Также речь шла о переводе, про-фессиональных навыках, квалифи-кации и возможностях переводчика.

Ключевые слова: язык, пере-водчик, текст, письменный перевод, устный перевод, художественный перевод, синхронный перевод, альтер-натива, профессиональные на-выки переводчика.

Tarjima sohasi qadim davrlardan muhim ehtiyoj sifatida insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Tabiiyki, dastlabki bosqichlarda tarjima og'zaki shaklda mavjud edi. Vaqt o'tishi bilan tillar rivoji va yozma nutqning paydo bo'lishi uning bugungi zamonaviy va hujjatlar shaklida, ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalari uchun o'z yozma asarlar darajasida yuksak bosqichga ko'tarildi.

Tarjima nima? Tarjima psixologik jarayon bo'lib, bir tilda yozilgan yozma yoki og'zaki nutqning boshqa tildagi o'zgarishi. Bu savolga javob berish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishimiz kerak. Insonning ruhiy holati va idrok etish usullari haqidagi fan sifatida voqealarni idrok etish bilan shaxs shug'ullanadi va tarjimon faoliyati ham shu jarayonga o'xshaydi. Ya'ni, yozma material tarjimon tomonidan o'ziga xos tarzda idrok qilinadi va o'ziga xos tarzda takrorlanadi. Rasmiy – ish yuritish materiallari asosan yozma shaklda mavjud bo'lib, ularning tarjimasini asosan shu tartibda amalga oshiriladi, lekin ba'zi hollarda rasmiy idora matnlarining ayrim elementlari suhbat davomida, ayniqsa, rasmiy suhbatlarda qo'llaniladi, bu esa o'z navbatida og'zaki tarjima zaruratini keltirib chiqaradi.

Alohida tillarning paydo bo'lishi bilan (inson faoliyati sifatida) yozma va og'zaki tarjima paydo bo'ldi. Matn – yozma tarzda yozilgan har qanday narsa matn deb ataladi (badiiy asar, insho, hujjat, ularidan parcha va boshqalar). Tilshunoslik nuqtai nazaridan matn yozma yoki og'zaki nutq bo'lib, ichki tuzilish jihatidan shakllangan va mukammaldir. Matnning asosiy xususiyati uning tarkibiy qismlarining uyg'unligi va strukturaning yaxlitligidir. Matnlar turlicha bo'ladi. Matn turlaridan biri rasmiy matndir. Rasmiy – ish yuritish matnlari – 2 yoki undan ortiq tomonlarning rasmiy munosabatlarini tartibga soluvchi yozma (yoki og'zaki) nutq. Rasmiy – ish yuritish matnlari asosan yozma shaklda mavjud, ammo tarjimonlar uchun ularni bilish zarur bo'lib, rasmiy muzokaralarda ko'proq uchraydi.

Rasmiy – ish yuritish matnlarining janrlari. Turli tasniflar mavjud bo'lib, ularidan biri fuqarolarning shaxsiy hujjatlaridir (ishonchnoma, patent, ariza, bayonot, shikoyat, tavsif va boshqalar). Ma'muriy va tashkiliy hujjatlar (nizomlar, yo'riqnomalar, shartnomalar va boshqalar). Rasmiy (tarqatma) hujjatlar (buyruqlar, farmoyishlar, rasmiy e'lonlar va h.k.). Axborot hujjatlari (ma'lumotnomalar, hujjatlar va boshqalar). Rasmiy – ish yuritish xatları (bayonnomalar) Bayonnomalar – bu tomonlarning rasmiy muzokaralari, majlisleri va uchrashuvlari natijasi bo'lgan hujjatlar; tomonlar imzolagandan keyin rasmiy yoki hujjatli xususiyatga ega bo'ladi.

Tarjima tushunchasi. Yuqorida aytdi o'rganimizdek, tarjima va uning qoidalari haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ularidan biriga to'xtalib o'tdik. L. S. Barxudarov "Tarjima bir tildagi nutqning ma'noni saqlab, boshqa til nutqiga aylanishi" deb yozadi. Yana bir mutaxassis I. R. Galperin "Tarjima nutqning semantik va stilistik tomonlarini bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishdir", deydi. O. S. Axmanova fikriga ko'ra, "Tarjima – asl til nutqida aks ettirilgan ma'lumot yoki ma'lumotni boshqa til vositalari orqali uzatishdir". G. V. Koushanskiyga

ko'ra "Tarjima aloqa faoliyatining eng muhim shakllardan biri sifatida, birinchi navbatda, tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini muhim bo'lgan asl matn tilini to'liq va mos ravishda etkazishga tayanadi". Yuqoridagi qoidalarini (olimlar fikrlarini) ko'rib chiqish, tarjima tushunchasining ma'nosini juda keng va ilm-fan sifatida ko'p qirrali hodisa ekanligini isbotlaydi.

Tarjima sohasida olim va mutaxassis amerikalik Yu. Nayda hazil tariqasida "Tarjima bilan shug'ullanuvchi mualliflar qancha ko'p bo'lsa, qoidalar ham shunchalik ko'p bo'ladi", deb yozadi. Shu bilan birga, nisbatan umumiy bo'lgan va mavzuning turli tomonlarini qamrab oluvchi qoida mavjud: Tarjima – bu til vositasi bo'lib, tarjima tilda matn yaratiladi va u vazifasi, mazmuni va tuzilishi jihatidan asl matn tiliga teng.

Tarjimonning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat? Tarjimonning maqsadi va vazifalari haqida turli mutaxassislar turlicha fikr bildiradilar. Ba'zi olimlar tarjimon matnning grammatikasiga e'tibor qaratishi kerak desa, boshqalar mazmuniga e'tibor qaratishi kerak, deydlar. Masalan, A. V. Fyodorov bu borada shunday yozadi: "Tarjimonning maqsadi o'quvchi yoki tinglovchini begona til matni bilan imkon qadar yaqindan tanishtirishdir". Bizningcha, tarjima asl matnga teng bo'lishi kerak.

Tarjima turlari va uning tasnifi. Tarjimonning shart-sharoitlari va amaliyotiga ko'ra matnlar ikki klassifikatsiyaga bo'linadi: 1. Janr va stilistik tasnif. 2. Psixolingvistik tasnif. Birinchi tasnifga ko'ra matn 2 guruhga bo'linadi: 1. Badiiy yoki adabiy matnlar (nars: roman, qissa, hikoya; nazm: doston, she'r, g'azal, ruboiy va boshqalar). 2. Axborot yoki maxsus matnlar (iqtisodiy, siyosiy, tibbiy matnlar va boshqalar). Badiiy matnlar va axborot matnlari o'rtasidagi farq nima? Bu savolga javob berish uchun biz ushbu ikki turdagi matnning ma'nosini aniqlab olishimiz kerak. Psixolingvistik (yoki psixologik, lingvistik) tasniflash. Bu tasnif tarjimon tomonidan nutqni idrok etish shakli va vositalari hamda uni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish usuliga asoslanadi. Bu tasnifga ko'ra tarjimalar yana ikki guruhga bo'linadi: 1. Yozma tarjima. 2. Og'zaki tarjima.

Yozma tarjima – nutqning yozma shaklda ifodalanib, boshqa tilga o'girilgan tarjima usuli va vositalari.

Og'zaki tarjima – nutqning og'zaki (yozilmagan) va boshqa tilga tarjima qilinadigan tarjima usuli. Tabiiyki, bu ikki turdagi tarjima o'ziga xos xususiyatlarga ega va bir-biridan farq qiladi. Ularning orasidagi farqni quyidagicha aniqlash mumkin: 1. Vaqt; 2. Asl matn qismlarining hajmi; 3. Tillararo muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari; 4. Lingvistik muloqotda tillar nisbati.

Vaqt omili. Yozma tarjimada vaqt nisbatan ko'p, shuning uchun tarjimon turli manbalardan (lug'atlar, Internet va boshqalar) bevosita foydalanishi mumkin. Og'zaki tarjimada esa deyarli vaqt yo'q, bunday imkoniyatlar ham yo'q va bu turdagi tarjima boshqa tarjima turlariga qaraganda qiyinroq. Chunki qisqa vaqt ichida juda og'ir psixologik yuk uning zimmasida bo'ladi.

Asl matn parchalarining hajmi. Yozma tarjimada matn butunlay tarjimonning ixtiyorida. Biroq og'zaki tarjimada nutq parcha-parcha va hatto yarim gap shaklida ham tarjimonga yetib boradi, hatto gapning qan-

day tugashini tarjimon bilmay qoladigan holatlar ham uchraydi. Tillararo muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari; yozma tarjimada tarjimon tarjima qilingan matn muallifi bilan aloqada bo'lmaydi, ya'ni kerakli vaqtda unga murojaat qilib alohida nuqtalarni (fikrlarni) aniqlay olmaydi. Og'zaki tarjimada bir vaqtning o'zida kamida uchta ishtirokchi qatnashadi: so'zlovchi, tinglovchi va tarjimon. Bundan ko'rinib turibdiki, tarjimon tarjima ishtirokchilari bilan bevosita aloqada bo'lib, savollar berishi, muayyan nuqta yoki holatlarni aniqlashi mumkin.

Lingvistik aloqadagi tillarning nisbati. Yozma tarjimada tilning bir jihati ustida ishlaydi, lekin og'zaki tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimonning ishi bir vaqtning o'zida ikki tomonlama, ya'ni ikki o'lchovli (tomonlama) prinsip asosida ishlaydi. O'z navbatida og'zaki tarjima 2 kichik guruhga bo'linadi: 1. Sinxron tarjima 2. Ketma-ket tarjima. Ketma-ket tarjimoni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Ketma-ket rasmiy tarjima (bu hollarda yuqori darajadagi rasmiy uchrashuv va konferensiyalarda e'tiborga olingan holda qo'llaniladi); 2.

Ketma-ket norasmiy og'zaki tarjima (masalan, do'stona suhbatlar, norasmiy sayohatlar va boshqalar).

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, tarjimonlik kasbi azaldan katta ahamiyatga ega bo'lgan va bugungi kunda u o'sib bormoqda, chunki insoniyat azaldan muloqotga muhtoj bo'lib kelgan, turli xalqlar o'rtasidagi muloqotni tarjimasiz amalga oshirish mumkin emas. Bugun, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida dunyoning barcha davlatlari bilan aloqalar o'rnatib, rivojlanayotgan bir paytda davlatlararo muzokaralar, odamlar o'rtasidagi muloqotni tarjimasiz ta'minlash mumkin emas.

Bugungi kunda ushbu xizmat turiga ehtiyoj ortib bormoqda. Jamiyatimiz bu ish naqadar mashaqqatli ekanini anglab yetishi, boshqa kasblar qatori tarjimonlar mehnatini ham qadrlashi uchun vaqt kerak bo'ladi. Bu kasbga nisbatan odamlarning fikri individualdir. Hech bo'lmaganda bir marta tarjima qilgan odamlar tarjimonlik kasbini, mehnatini qadrlashadi, ba'zilar esa buni til bilimiga tenglashtiradi, ya'ni inson tilini bilsa, tarjima ham qila oladi, bu katta xato. Boshqa tillarda gapira oladigan hamma ham tarjima qila olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бархударов Л.С. Процесс перевода с лингвистической точки зрения. // Конференция по вопросам теории и методики преподавания перевода. – Москва, 1964.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва, 1975.
3. Борисова Л.И. Вопросы оценки качества перевода в современном переводоведении. // Перевод научнотехнической литературы. – Москва, 1976.
4. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – Москва, 1975.
5. Зимняя И.А. Психологический анализ перевода как специфического вида речевой деятельности. // Теория перевода и научные основы подготовки переводчиков. – Москва, 1975, т.1.

Nafisa RAHMANOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

NIZOMIY VA NAVOIYNING OTA-O'G'IL MUNOSABATLARI HAQIDAGI QARASHLARI

Annatsiya: maqolada Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin", Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlarida qalamga olingan solih farzand tarbiyasi, ota – o'g'il munosabatlari mavzulari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Nizomiy, Navoiy, "Xusrav va Shirin", "Farhod va Shirin", komil inson tarbiyasi, ota-o'g'il munosabatlari

Annotation: The article provides a comparative analysis of the themes of the upbringing of a righteous child, father-son relations, written in the epics of Nizami Ganjavi "Xusrav and Shirin", Alisher Navoi "Farhod and Shirin".

Keywords: Nizami, Navoi, "Xusrav and Shirin", "Farhod and Shirin", perfect human upbringing, father-son relations

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ тем воспитания праведного ребенка, отношений отца и сына, написанных в эпосах Низами Гянджеви «Хусрав и Ширин», Алишера Навои «Фарход и Ширин».

Ключевые слова: Низами, Навои, «Хусрав и Ширин», «Фарход и Ширин», совершенное человеческое воспитание, отношения отца и сына.

Nizomiy Ganjaviy o'z asarlari bilan Sharqning ijtimoiy-badiiy tafakkurida yangi sahifa ochgan buyuk shoirdir. Uning asarlari to'qqiz asrdan beri tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelmoqda. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida, pok muhabbat, adolatli shoh mavzu-

laridan tashqari, yosh avlod tarbiyasi, ota-o'g'il munosabatlari komil inson mavzusiga bog'lab juda chiroyli yoritib berilgan. Kisro-Hurmuz, Hurmuz – Xusrav o'rtasidagi munosabatlari o'rta asrlarda otaning farzand oldidagi, farzandning ota oldidagi burchlari qay yo'sinda ado etil-